

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7832922>

**Rustamova Ra'no Nasriddinovna**  
*Yunusobod tumani 17-IDUM psixologi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada yoshlarini kasbga yo'naltirish ishlarining psixologik asoslari, bu borada muhit va jamiyat hamkorligi, mehnat texnologiyasi va psixologiyasi, mehnat sharoitining ustoz-shogirdlik, murabbiylik ishlarining to'g'ri yo'lga qo'yilishi singari muhim omillar bilan bog'liq bo'lgan holatlari haqida fikr yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Yoshlar, mutaxassis, raqobat, iqtisodiyot, kasb, hunar, malaka.*

**Abstract:** *This article focuses on the psychological basis of the work of directing young people to the profession, the circumstances that are associated with such important factors as the environment and community cooperation, Labor technology and psychology, masterfulness of working conditions, the right path of coaching work.*

**Keywords:** *youth, specialist, competition, economy, profession, craft, qualification.*

#### KIRISH

Ma'lumki, har qanday jamiyatning ravnaqi, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy barqarorligi, fuqarolarining aqliy va axloqiy salohiyatini yuksak darajada rivojlanganligiga bog'liq. Zero, jamiyatimizning ma'naviy yangilanishida, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishda jahon hamjamiyatiga qo'shilishini ta'minlaydigan demokratik xuquqiy davlat qurish kadrlar tayyorlashning milliy masalasi ustuvor mezon sifatida muhim rol o'ynaydi. Inson bolasi kamolga yetgani sari ilmga, ma'rifatga talpinadi. Dastlabki saboqni ham u maktabdan oladi. Ammo kelajagimiz egalari bo'lgan yoshlarga ta'lim berish ularni o'qitish bilan bog'liq ayrim muammolar bugungi kunda kishini o'ylantirib qo'yayotgani tabiiy. Chunki zamonaviy shiddatkor jamiyat esa yetuk bilimdon mutaxassis kadrlarga muxtoj bo'lib boraveradi. Kasbiy shakllanish jarayonining dastlabki va ayni damda o'ta muhim bosqichi bo'lajak kasbni tanlash, ya'ni aniq bir kasbiy qarorga kelishigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Ravshanki, yoshlarning kasb tanlashga tayyorgarlik darajasi, faqatgina yosh xususiyatlariga bog'lik emas, u ma'lum yoshga kelib o'z o'zidan shakllanib qolmaydi. Yoshlarning kasb tanlashga pedagogik-psixologik bilim, ko'nikma, malakalar, shuningdek, jamiyatning ta'siri orqali tayyorlash va tarbiyalash lozim. Mazkur jarayonda shaxsdan kasbga doir bilimlarga ega bo'lish talab qilinadi. Shuning uchun xam o'quvchilarni kasblar olamiga doir bilimlar bilan qurollantirish hamda amaliy ko'nikma va malakalarni hosil qilish lozim. Buning uchun kasblarga doir qo'llanmalar, tarqatma materiallar bilan ta'minlash lozim. Shundagina kasb tanlash jarayonida

yuzaga keladigan turli qiyinchilik, ziddiyat, to'siqlarni oldini olgan holda o'quvchi-yoshlarni ongli ravishda kasbga yo'llash imkoniga ega bo'lamiz.

#### ASOSIY QISM

Ta'limda iqtidorli bolalarning rivojlanishini maktab psixologlari orqali nazorat qiladi, iste'dodli deb topilgan o'quvchi-yoshlarning hududiy bankini yaratadi. Ularning ijtimoiy-oilaviy muhiti haqida ma'lumotlar yig'ishni tashkil qiladi, intellekt ko'rsatkichlarini, kasb-hunarga moyilliklarini, qiziqishlarini va ko'nikmalarini hisobga oladi, ehtiyojga qarab tegishli metodik, psixologik, tibbiy yordam usullarini qo'llaydi. Maktablar va maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida bolalar va yoshlarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirishda, kasb-hunarga yo'naltiruvchi tadbirlarning o'tkazilishida metodik va amaliy yordam beradi, qilingan ishlar natijalarini tahlil qiladi va umumlashtiradi. O'z hududi doirasida mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojni Mehnat vazirligining bo'linmasi orqali oladi, o'rganadi va zarur bo'lgan kasb-hunarlar haqida maktablardagi kasb-hunarga yo'naltiruvchi mutaxassislar bilan maxsus kechalar, suhbat va ko'rik-tanlovlar, turli musobaqalar uyushtirishda yordam ko'rsatadi.

Kasbga yo'naltirish ishiga kompleks yondashish o'quvchilarni har tomonlama o'rganishni ham ko'zda tutadi. Bu tadbir o'quvchilar buyon ishlashning to'g'ri shakllari va metodlarini qidirib topishga yordam beradi. O'rganishni metodlar bilan o'tkazish, eng muhimi - bu ishni muntazam ravishda va sobitqadamlik bilan amalga oshirish kerak. Kuzatish - o'quvchilarni o'rganishning keng ommalashgan metodidir. Bu metod muayyan maqsadni ko'zlaydi, ish reja asosida olib boriladi, kuzatishning yakunlovchi natijalari qayd qilinadi. Mehnat ta'limi darslari kuzatish o'tkazish uchun keng imkoniyatlar yaratib beradi. Diagnostik suhbatlar o'tkazish ham qo'llaniladi. Bunday suhbatlar yakka tartibda yoki jamoa tarzida o'tkazilishi mumkin.

Sinfdan va maktabdan tashqari ish o'quvchilarni kasb-korni ongli ravishda tanlashga, ularni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, moddiy ishlab chiqarish, fan, texnika borasida va shu kabi sohalarda ularda ishga qiziqishni shakllantirishga ko'p jihatdan yordam beradi. Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda olib borilayotgan kasbga yo'naltirish ishida o'quvchilarning yosh va bilish xususiyatlariga qarab bir necha bosqichni ko'rsatib o'tish mumkin. Birinchi bosqich (I-IV) sinflarning o'quvchilari bilan ishlash - moddiy ishlab chiqarish sohasida mehnat bo'lgan ijtimoiy qiziqishlarni shakllantiradi, o'quvchilarda umuman mehnatga ijobiy munosabatda bo'lishni, eng muhimi - jismoniy mehnatga shunday munosabatda bo'lishni, ishchi degan nomni hurmat qilishni, qo'lidan keladigan o'z mehnati bilan atrofdagi kishilarga quvonch bag'ishlashga va bundan ma'naviy qoniqish olishga intilishni shakllantiradi. Bu boradagi ishlar oldindan tuzilgan reja asosida olib boriladi. Bu rejaga muvofiq ekskursiya uyushtirish eng ommalashgan kasblar to'g'risida qishloq maktablarining o'quvchilari uchun jamoa xo'jaligida, shahar maktablarining o'quvchilari uchun korxonalarda, ota-onalarning ishlari va ularning mehnatda erishgan muvaffaqiyatlarida suhbatlar tashkil qilish ko'zda tutiladi. Ekskursiyalar chog'ida ishlab chiqarish



jarayonida qatnashayotgan odamlarning mehnatiga, xom ashyodan tayyor mahsulot olishga berayotgan mehnat qurollariga asosiy e'tibor beriladi, jamiyat va ayrim odamlar turmushida mehnatning roli o'qitirib o'tiladi. Ikkinchi bosqich (V-VIII) sinflarning o'quvchilari bilan ishlash - biron ish qilishga undaydigan bosqich. Ma'lumki, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda bilishga bo'lgan qiziqish, odatda, kasbga bo'lgan qiziqishdan oldin shakllanadi. Shu boisdan ushbu bosqichida kasbga yo'naltirish sohasida olib borilayotgan ishda o'quvchilarda ish turlari (texnika bilan ishlash, tabiat ob'ektlari va shu kabilar bilan ishlash) ni bilishga bo'lgan qiziqishni uyg'otish muhimdir. Kasbga yo'naltirishning ana shu bosqichida texnikaga va mehnatga (texnika ijodkorligi va qishloq xo'jalik tajribachiligiga) oid sinfdan tashqari mashg'ulotlar, viktorinalar, o'yinlar katta rol o'ynashi lozim. Bu bosqichda o'quvchilarda ijtimoiy maqsadlarning shakllanishi davom etadi, shu bilan birga kasbga yo'naltirish ham boshlanadi. Uchinchi bosqich (asosan IX-XI) sinflarning o'quvchilarini qarab oladi - bu bosqichida o'quvchilar o'z kuchlarini konkret mehnatda tekshirib ko'radilar, o'quvchilarning kasbga bo'lgan qiziqishlari va mayllari yanada shakllanadi. O'quvchilar bu bosqichda o'z kasbiy niyatlarining birmuncha umumiy kasblar bo'yicha amaliy ko'nikma va malakalar bilan mustahkamlaydilar. Bu bosqich konkret kasbni tanlash, uni o'zlashtirish yo'llarini belgilash bilan tugaydi. O'quvchilarni qiziqishlari (predmetlar, predmet-texnika, ishlab chiqarish-texnika va shu kabilar) bo'yicha to'garaklarda ishlashi ushbu bosqich uchun diqqatga sazovordir.

Kasb to'g'risida maslahat 3 ta bosqichga bo'linadi.

1. Kasbga tayyorlash. Bunga o'quvchining maktabni bitirgunga qadar bo'lgan jarayoni kiradi. Bunda o'quvchilarning qiziqishi, xohishi u yoki bu kasbga moyilligini hisobga olgan holda kasblarga tayyorlanadi, kasblar to'g'risida axborotlar berib boriladi.

2. Yakunlovchi: o'quvchilarni kasbga yo'llash ishlarini olib boriladi. Bu yakunlovchi turda o'quvchilarni qobiliyatiga qarab u yoki bu kasblarni egallashga yordam berish.

3. Kasbga ko'nikma hosil qilish. Bu kasbga yo'llash ishi yakunlovchi ish bo'lishi kerak, chunki o'quvchi zavod va fabrikada, shuningdek o'quv yurtlarida o'z qiziqqan sohasi bo'yicha ishlaydi va o'qiydi. Ko'nikma hosil qilish sistemali ravishda rejani bajarish va musobaqalarda ishtirok etish natijasida mustahkamlanadi.

Kasbga layoqatliligi. Kasbga layoqatliligini aniqlash 3 yo'l bilan amalga oshiriladi.

- a) Sog'lig'i to'g'risida;
- b) Kasbga taxminiy tayyorgarlikning puxtaligi;
- v) Psixofiziologik holati.

Bu layoqatligiga qarab mutaxassislar u yoki bu kasbga loyiq ekanligini aniqlashadi va kasbni o'zgartirish kerakligi yoki sog'liqqa zararligini, uning organizmi tanlagan kasbga loyiq emasligi to'g'risida ma'lumot berishadi. Ushbu mavzu yuzasidan psixologlarning olib boradigan – kasbga yo'naltirish masalalarida test, anketa, suhat metodlaridan shuningdek psixologik metodikalardan unumli foydalanish maqsadga

muvofiq. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishga oid metodikaning mohiyati, shuningdek, tajriba-sinov ishlarining yakuni va natijalari ilmiy asoslangan. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish borasida psixologning tashkil etilgan tajriba-sinov ishlari jarayonida yoshlarni kasbga yo'naltirish jarayonining samarali kechishini ta'minlovchi shakl, metod va vositalar aniqlandi.

#### **XULOSA**

Demak o'quvchilarni kasbga yo'naltirishga qo'yiladigan pedagogik - psixofiziologik talablar umumiy xolda quyidagi xulosalarga olib keldi: - o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishning nazariy va amaliy asoslarini yaratish; - o'quvchilarni kasbiy qiziqishi tanlagan kasb bilan o'zaro aloqasida namoyon bo'luvchi shaxsning murakkab sifati ekanligini anglash;

- o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishga oid ommaviy axborot vositalarida ko'rsatuvlar uyushtirish; - o'smirlarni mehnat faxriylari bilan uchrashuvlar o'tkazish;

- Ishlab chiqarish korxonalariga zamonaviy texnologiyalar bilan tanishtirish; - o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishning tavsiyalar va uslubiy ko'rsatmalar yaratish lozim.

#### **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasining «Milliy kadrlar» dasturi. Ma'rifat gazetasi.15 sentyabr,1997 yil.

2. I. A. Karimov “Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi; O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari” T., 2009 y mart

3. M. Ochilov “Muallim qalb me'mori” T., “O'qituvchi” 2001 y

4. M. F. Ziyaeva “Bo'lajak tibbiyot xodimining kasbiy yo'nalganligini shakllantirish” Xalq ta'limi j ., 2001 y 3-son., 54-56 b.

5. M. F. Ziyaeva “Kasbga qiziqish va kasb tanlash” Kasb xunar ta'limi j ., 2001 y 5-son., 15-17 b. 6. B. X. Raximov “Ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchi shaxsning kasb madaniyati” Samarqand., 1996 y., 43-45 b.